

## **Qardosh ikki millat do'stligi abadiydir**

2022-yil 1-iyul kuni Nukusda bo'lib o'tgan voqealar hech kimni befarq qoldirmadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahrida ayrim fitnachi kimsalar tomonidan uyuştilrilgan noqonuniy namoyishlar nafaqat Qoraqalpog'istonda, balki O'zbekistonda ham tinchlikni izdan chiqarishga qaratilgani, o'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtasida azaliy do'stlikka sovuqchilik tushirishga urinish ekanligi oldindan ayon edi. Buni ijtimoiy tarmoqlarda asossiz, mantiqsiz, yengil-yelpi feyk ma'lumotlardan ko'rib turibmiz.

Uzoq asrlar mobaynida o'zbek va qoraqalpoq xalqlari haqiqiy og'a-inichilik fazilatlariga asoslanib, o'zaro munosabatlarini shakllantirib kelgan. Bu ikki qavm ma'naviy-ruhiy yaqinligini belgilaydigan asosiy omil va madaniyatlar mushtarakligi, ularning o'zaro yaqinligi edi. Darhaqiqat, tillar yaqinligi dillar yaqinligiga olib keldi. Madaniyatlar bir-birini boyitdi. Qadimiy madaniyat namunalari, umummilliy qadriyatlar, jondoshu-qondosh bo'lган har ikki millat uchun tarixiy ahamiyatga ega an'analar shakllandı. Shu asosda iqtisodiy hamkorlik, yagona iqtisodiy makon, yagona maqsad vujudga keldi.

Keyingi 5-6 yil ichida Qoraqalpog'istonda yuz bergen ijobiy o'zgarishlar juda katta: ko'p yangi korxonalar, obod shaharlar, qishloqlar, mahallalar yaratildi, Orol dengizining qurib qolgan qismi o'zlashtirilmoqda, Yangi Mo'ynoq yaratildi, Nukus shahri obodonlashtirilmoqda, qoraqalpoq tili, madaniyati, san'ati, ta'lif tizimi, fani rivojiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Hozirda ham yelkani-elkaga quyib, 2022-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash nazarda tutilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Yangi O'zbekistonda Yangi Qoraqalpog'istoni bunyod etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarni xalq bilan bamaslahat va birgalikda amalga oshirish muhimdir.

Xulosa qilar ekanmiz, Nukusdagi voqealar tashqi kuchlarning mafkuraviy ta'siri ekanligi hamda unga qarshi faqat teran aql, og'ir-vazminlik, sof tafakkur va mustaqil tahililiy fikr yuritgan holda tinchlikni saqlab qolish zarur. Tinchlik eng oliy ne'matdir. Tinchlik hukm surgan yurtda rivojlanish va inson qadri ulug' bo'ladi. Biz ikki qardosh millatmiz, o'zligimizga hech bir tashqi kuch rahna solishiga yo'l quymaslik har birimizning burchimiz hisoblanadi.

**Bahrom Abdughalimov,  
O'zbekiston Respublikasi  
Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti,  
tarix fanlari doktori, professor.**